

AMIR TEMURNING MIN SULOLASI BILAN MUNOSABATLARI

Amandavlatov Adham Absamat o'g'li

adhambekamandavlatov82@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy (Min) davlati va Amir Temur davlati o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, shuningdek, Amir Temurning Xitoyga qarshi harbiy yurishi davrida mo'g'ul shahzodasi Tayzi o'g'lon faoliyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Hukmdor, sulola, diplomatiya, elchi, harbiy yurish, shahzoda, ichki kurash, Ulug' yurt, vassal, poytaxt, Dadu (Pekin), "Min shi", Mo'g'uliston, ekspansiya, Samarqand, Hirot, bojxona, Gansu.

Abstract: This article discusses the deterioration of relations between the Chinese (Min) state and the state of Amir Temur, as well as the activities of the Mongol prince Taizi Oglan during the military campaign of Amir Temur in China.

Keywords: ruler, dynasty, diplomacy, ambassador, military march, prince, internal struggle, Great country, vassal, capital, Dadu (Beijing), "Ming Shi", Mongolia, expansion, Samarkand, Hirat, Gansu, custom.

Imperator Xun'u hukmronligining dastlabki davri 1388 yilga qadar shimoliy sarhadlardagi mo'g'ullar bilan urushlar davriga to'g'ri keladi. Shimoliy urushlardajiddiy qarshilikka uchramagan imperator muvaffiqiyatlarga erishdi. Natijada Min imperatori tashqi siyosatda o'zini mintaqadagi eng qudratli hukmdor, ya'ni Yuan sulolasining davomchisi deb hisoblay boshlagan. Imperator o'z o'tmishdoshlari - mo'g'ul imperatorlarining Chig'atoy ulusi xonlari ustidan Hubilayxon zamonidan boshlab rasman yoki amalda syuzeren huquqlarga ega bo'lganligini yaxshi anglagan. Min imperatori ham ular kabi g'arbiy o'lkalardagi mamlakatlarga Xitoyga vassallikni tan oldirishga erishishni istardi. Amir Temur davlati bilan diplomatik aloqalar aynan shu davrdan boshlangan deb xulosa qilish mumkin.

Dastlabki yuborilgan elchiliklar zimmasiga Amir Temur davlati haqida ma'lumotlar to'plash vazifasi yuklatilgan. Ammo, ushbu elchilar kim va qachon yuborilgani aniq emas. Biroz keyinroq yuborilgan Fu An va Chen Devenlar esa Amir Temurga Xitoy (Min) syuzerenitetini tan oldirishi lozim edi. Biroq, imperator Xun'uning Xitoy hukmdorlariga teng raqib hisoblangan Amir Temurni tezda bo'ysundirishga ishonganligi juda ham taajjubli. Ba'zi G'arb mualliflarining fikricha, xitoyliklar Amir Temur davlatining imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olmaganlar. Ikki o'rtada munosabatlar adovatli tus olgan vaqtda Min sulolasi asoschisi vafot etib, mamlakatda taxt uchun kurashlar boshlangan. Shimoldagi mo'g'ullarga o'z syuzerenitetini tan oldirishga muyassar bo'lgan Xun'uning

1398 yilda vafot etishi bilan xitoyliklar Mo'g'ulistonda qo'lga kiritgan hududlarni mo'g'ullarga boy berib qo'yadilar. Keyingi imperator Imperator Yongle ko'pincha faol savdo-sotiqni rivojlantirish, chet el bilan aloqalarni rivojlantirish tarafida bo'lgan va O'rta Osiyo xalqlari bilan aloqalarni kuchaytirgan. Uning hukmronligi Xitoy uchun noodatiy bo'lgan. Boshqa Min imperatorlaridan farqli o'laroq, u savdo-sotiqni kengaytirishni faol ravishda rag'batlantirdi va Xitoyga keladigan elchilar sonini ko'paytirishga harakat qildi, boshqa imperatorlar esa umuman teskarisi, chet elliklar bilan aloqalarni cheklashga harakat qilgan edilar. Imperator Yongle esa qanday bo'lmasin, u Xitoyning Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy ishtirokini rivojlantirishga intildi va uning hukmronligi yetakchi tarixchilar tomonidan "Ming tarixidagi eng tashabbuskor va faol davrlardan biri" deb nomlandi. Shuningdek, min hukumati ko'chmanchi jung'orlar bilan unchalik ham yaqin aloqada bo'lmagan. Yagona rahbarning yo'qligi bu ko'chmanchilarning xitoyliklar bilan bevosita, tezkorlik bilan savdo aloqalari qilishiga to'sqinlik qiladi, chunki Min hukumati taniqli hukmdorlar bilan muomala qilishni afzal ko'rardi. Xitoy savdogarlari va amaldorlari o'rtasida ko'chmanchi rahbarlar bilan unchalik katta bo'lmagan savdo-sotiq amalga oshirilardi, chunki ular o'troq xalq mahsulotlariga ko'proq muhtoj bo'lib, Sharqiy Turkiston vohalari xitoyliklar uchun ancha qulay edi va ular bilan savdo qilishardi. Shuning uchun ham jung'orlar bilan bu munosabatlar haqida yozma manbalar kam, chunki Xitoy yozma manbalari taniqli davlatlarga qaratilgan. Ushbu ma'lumotlar orqali quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

Min sulolasining hokimiyat tepasiga kelganidan keyin quyidagi vazifalar Xitoy uchun hal qilinishi kerak bo'lgan quyidagi omillarni yuzaga chiqargan : Vayron qilingan mamlakatni tiklash, sobiq sulola tarafdorlarining mag'lub bo'lgan yerlari va tashlandiq yerlarini davlat fondiga kiritilishi ; davlat ularni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilarga taqdim etishi. Natijada, ekin maydonlarining ulushi keskin oshishiga olib keladi, g'alla hosili Yuan imperiyasi davri bilan qiyoslanganda hosil deyarli uch baravar ko'payadi.

Xitoyda yangi markazlashgan davlatning tashkil topishi bilan Min hukumati tashqi siyosatining maqsadlaridan biri xorijiy bosqinlarni to'xtatish edi. Taxtga o'tirgan Min imperatorlari o'z ta'sir doirasini kengaytirishga harakat qildi, ammo yana yigirma yil davomida birinchi Min imperatori Taizu Xitoydagi ichki konfliktlarni hal qildi. Bu esa yangi sulolaning tashqi siyosatida o'z izini qoldirdi. Xorijiy davlatlar bilan rasmiy aloqalarni saqlab turish ham imperiyaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qildi, shuning uchun G'arb davlatlarini Xitoyga "jalb qilish" yo'nalishi ham Xitoy ichidagi Min hukumati qudratini mustahkamlash, ham uning obro'sini oshirish ehtiyojlarini yuzaga chiqaradi. Xalqaro maydonda "xorijiy elchilarni yaxshi munosabat bilan jalb qilish" siyosati qo'llandi va bu aniq maqsadlarga xizmat qilishi kerak edi. Shu bois Min hukumati Markaziy Osiyo davlatlari bilan elchilik aloqalarini o'rnatish va kengaytirish tashabbusi bilan chiqdi.

Shimoldan tashqi hujum xavfi kuchayganligi sababli esa imperator Chji Di tomonidan poytaxt qaytadan Pekin shahriga ko'chirilgan. Hukmdor qarorgohi ilgari, imperator Xun'u davrida Nankinga ko'chgan edi.

Xitoyliklar nafasini o'nglab olishi uchun shimoldagi vaziyatning tez o'zgarishi imkon bergan. 1399 yilda Shimoliy Yuan hukmdori Elbegxon qabila etakchilaridan biri - Ugechi tomonidan o'ldirilgan. Natijada Shimoliy Yuan mo'g'ullari vaqtinchalik oyratlarga qaram bo'lib qoldilar. Ichki nizolar va oyratlar bilan urushlar bir necha yillardan beri davom etib kelganligiga aslo shubha yo'q. Chunki, 1398 yildayoq Shimoliy Yuan sulolasi toj-taxti uchun kurashlarda engilgan mo'g'ul xonzodasi Tayzi o'g'lon Amir Temur huzuriga kelgan. Bu davrda Xitoy bilan Amir Temur davlati orasidagi munosabatlarga darz ketib ulgurgan edi. Tayzi o'g'lonning kim ekanligi haqidagi ma'lumotlar aniq emas. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida uning ham qoon (Shimoliy Yuan hukmdori), ham oyratlar bilan muxolifatda bo'lganligi aytib o'tilgan. Yazdiy ma'lumotlarida Tayzi o'g'lon Amir Temur xizmatiga kirishi, uning 1404 yil kuzida Konigildagi to'y tantanalari paytida ham temuriylar saroyida bo'lganligi qayd etib o'tilgan. Yazdiy fikrlaridan Tayzi o'g'lon Xitoy harbiy yurishi davrida Amir Temurning yaqin maslahatchilaridan bo'lganligini tushunib olish mumkin. 1405 yili Amir Temurning Xitoy yurishida Oltin O'rdalik chingiziy xonzodalar singari uning ham qatnashishi ko'zda tutilgan. Ehtimolki, Tayzi o'g'longa, Shimoliy Yuan taxtini olib berish va'da qilingan bo'lishimumkin. Bu esa mo'g'ullarning Amir Temur bilan hamkorlikda Xitoyga hujumin anglatardi.

Amir Temur vafotidan so'ng temuriylar mamlakatida boshlanib ketgan taxt uchun kurashlarda uning nomiga aloqador ma'lumotlar yo'q. Tayzi o'g'lon keyinchalik Ulug' Yurt ulusi (Shimoliy Yuan)da qisqa vaqt hukmronlik qilganligi ham ehtimoldan xoli emas. Chunki, Mirzo Ulug'bekning asarida Ulug' Yurtning oyratlar bosqini arafasidagi hukmdorlari orasida Tobzi qoon nomi bor. Ulug'bekning ta'kidlashicha, ushbu hukmdor ham taxt uchun kurashlarda engilib, Amir Temur xizmatiga kirgan va islom dinini qabul qilgan. "To'rt ulus tarixi"da, shuningdek, Tobzi qoonning Ariq Buqa (Chingizxon nabirasi, Tuluning o'g'li) avlodidan ekanligi, Amir Temur vafotidan keyin taxtga o'tirib, bir necha kundan keyin o'ldirilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Manbalarda ko'rsatilgan ismlardagi tafovut juda ham jiddiy xatolardan emas. Agar bu ismlarning yozilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, - تايڭي Toyzi hamda تايڭي - Tobzi nomlarining faqatgina bitta nuqta bilan farqlanishini ko'ramiz. Bu tafovut kotib yoki tarjimonlarning kichik bir yanglishuvi yoxud o'sha davrdagi tushunarsiz ismlarining turlicha talaffuz etilganligi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Har ikkala manbada tilga olingan ushbu shaxslarning bir kishi ekanligi ehtimoli juda yuqoridir va buni rad etishga hozircha aniq asosga ega emasmiz. Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temurning Xitoyga harbiy yurishi mo'g'ullar saltanatini qayta tiklashga oid harakat bo'lib, Tayzi o'g'longa Yuan sulolasi taxtini olib berish orqali mo'g'ullarning avvalgi shuhratini tiklashga qaratilgan so'nggi yirik harbiy amaliyot deb baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV— IX вв. Алматы. 1994
2. 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligi
3. Китайская армия при династии Мин (вторая половина XIV-первая половина XV века).. Батыр, (N. 6.) – М.: 2015.
4. Бокшанин А.А. Императорский Китай в начале XV века (внутренняя политика). – М.: Наука, 1976.
5. ШАРОФУДДИН АЛИ ЯЗДИЙ. Зафарнома – Т.:ШАРҚ, 1997
6. Rossabi M. «Ming China and Turfan, 1406-1517».
7. Hafiz-i Abru, A Persian Embassy to China being an extract from Zubdatu't tawarikh of Hafiz Abru. Trans. by K. M. Maitra. –New York, 1970.